YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 6-may, №17 (8035)

BEBAHO BOYLIGIMIZ BO‘LGAN SERHOSIL DALALARIMIZ, ZILOL BULOQLARIMIZ, DARYO VA KO‘LLARIMIZ, TOG‘ VA ADIRLARIMIZNI ASRAB, BOG‘-U ROG‘LAR, YASHIL MASKANLARIMIZNI KO‘PAYTIRSAK, O‘ZBEKISTONIMIZ YANADA GO‘ZAL DIYORGA AYLANADI, AVLODLARGA BIZDAN OZOD VA OBOD VATAN QOLADI.

Shavkat MIRZIYOYEV

YANGI BEKOBOD — YASHIL KELAJAK SARI!







Yangi Bekobod markaziy maydonida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari kun sayin zamonaviy va jozibador qiyofa kasb etib bormoqda.

Mazkur ezgu ishlarning mantiqiy davomi sifatida “Yashil makon” loyihasi doirasida keng ko‘lamli ko‘chat ekish tadbiri tashkil etildi. Tadbir avvalida yurtimizda, xususan tumanimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari uchun shukronalik keltirilib, mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligi abadiy bo‘lishini so‘rab, yurtboshimizga uzoq umr tilab ezgu duolar qilindi.

Ko‘chat ekish tadbirida tumanning faollari, ziyolilari, mehnat faxriylari, keng jamoatchilik vakillari hamda Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari birlashib, ildizi yopiq holda keltirilgan manzarali daraxt ko‘chatlarini ekishda faol ishtirok etdilar.

Har bir ekilgan nihol — bu ertangi kunimizga bo‘lgan mustahkam ishonch, tabiatga e’tibor va obod diyorimiz ravnaqi yo‘lidagi muhim qadamdir. Bunday tashabbuslar hududimizning ekologik muhitini yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Akrom MAMADALIYEV

Hosil — mehnat samarasi

BEKOBODDA TAJRIBA ALMASHINUVI



Bekobod tumanida pillachilik va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan navbatdagi amaliy seminar bo‘lib o‘tdi. Unda soha mutaxassislari, fermerlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Barchamizga ma’lumki, mamlakatimizda milliy boyligimiz sanalgan pillachilik tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ushbu sohada qator muhim qarorlar qabul qilinib, tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Bekobod tumani Mallaboy mahallasida navbatdagi seminar tashkil etildi.

Seminarda Toshkent viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Qoraboyev hamda tuman hokimi boshchiligida fermer xo‘jaliklari rahbarlari, agrar soha mutaxassislari va boshqa mas’ullar qatnashdi.

Tadbir avvalida nuroniylar boshchiligida jonliq qurbonlik qilinib, ehson berildi. Yurtimizda dehqonchilik ishlari barakali bo‘lishi va hosil mo‘l-ko‘l kelishini tilab ezgu duolar qilindi.

Seminar davomida qishloq xo‘jaligida dolzarb bo‘lgan bir qator masalalar atroflicha ko‘rib chiqildi. Jumladan, paxta maydonlaridan samarali foydalanish, g‘alla parvarishini ilmiy asosda tashkil etish, sug‘orish tizimini yaxshilash, ariq va zovurlarni betonlashtirish orqali suv yo‘qotilishining oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, intensiv sug‘orish usullarini keng joriy etish, dala chetlaridan unumli foydalanish, kartoshkachilikni rivojlantirish hamda yashil bog‘lar maydonini kengaytirish borasida aniq vazifalar belgilab olindi. Mutaxassislar tomonidan amaliy tavsiyalar berilib, ilg‘or tajribalar bilan o‘rtoqlashildi.

Ta’kidlanganidek, bunday seminarlar qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish hamda fermerlar bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bekobodda olib borilayotgan bunday tizimli ishlar agrar sohani yanada rivojlantirish, hosildorlikni oshirish va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Madina MIRZAAHMEDOVA

YOSHLAR KUNI

IMKONIYATLAR VA TASHABBUSLAR UCHRASHUVI



2026-yil 24-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlab o‘tkazilgan uchrashuvda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida Bekobod tumanida har hafta rahbarlar va yoshlar uchrashuvlari tashkil etilmoqda.

Navbatdagi uchrashuv Qo‘rg‘on mahallasida bo‘lib o‘tdi. Unda Ilg‘or, Terakzor hamda Gulzor mahallalari yoshlari ham ishtirok etdi. Tadbirda tuman hokimi, Davlat xavfsizlik xizmati rahbari va tegishli tashkilot rahbarlari qatnashib, yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqot olib bordilar.

Uchrashuv davomida yoshlarning IT, sport va kitobxonlik yo‘nalishlaridagi takliflari qo‘llab-quvvatlandi. Shuningdek, ularning maqsadlari, orzu-intilishlari hamda mavjud muammolari tinglandi.

Ayniqsa, yoshlar bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Natijada yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning samarali va kompleks tizimi shakllanib bormoqda.

Bilimli, keng dunyoqarashga ega, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash — ustuvor vazifalardan biridir. Shu bois uchrashuvda yoshlar mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishga, ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallashga chorlandi.

Zero, ertangi kun egalari — bugungi faol, intiluvchan va tashabbuskor yoshlardir!

ORZULARI USHALGAN MUHABBAT



Bekobod tumanida tashkil etilayotgan yoshlar bilan uchrashuvlar ularning hayotida muhim burilishlar yasamoqda.

Ma’lumki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimiz bo‘ylab har payshanba kuni yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqotlar o‘tkazib kelinmoqda. Bu uchrashuvlar orqali yoshlarning muammo va takliflari tinglanib, ularni hal etish, qo‘llab-quvvatlash borasida aniq choralar ko‘rilmoqda.

Qo‘rg‘on mahallasida o‘tkazilgan uchrashuvda esa 27 yoshli Ortiqboyeva Muhabbatning orzusi ro‘yobga chiqdi.

Muhabbat 2024-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining moliya yo‘nalishini tamomlagan. O‘qishni muvaffaqiyatli yakunlagach, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish topish ilinjida turli tanlov va imtihonlarda ishtirok etib kelgan. Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalida e’lon qilingan bo‘sh ish o‘rinlariga hujjat topshirib, sinovlardan o‘tgan bo‘lsa-da, hozirgacha ishga qabul qilinmagan edi.

— Oilaliman, bir nafar farzandim bor. Turmush o‘rtog‘im tumanimizdagi 1-son texnikumda bog‘bon bo‘lib ishlaydi. Men ham oilamga ko‘makchi bo‘lib, halol mehnat qilishni istayman, — deydi Muhabbat.

Uchrashuv kuni ham u Bekobod tumanidagi 3-umumta’lim maktabida mavjud maktab maslahatchisi lavozimiga hujjat topshirganini bildirib o‘tdi. Mazkur masala mutasaddi rahbarlar e’tiboridan chetda qolmadi.

Tuman hokimining topshirig‘iga asosan Muhabbat ushbu lavozimga ishga qabul qilinib, shu kunning o‘zida uning ishga olingani haqidagi buyruq Xalq ta’limi bo‘limi mas’ullari tomonidan xonadoniga yetkazildi va u samimiy muborakbod etildi.

Bu xushxabar nafaqat Muhabbat, balki uning oila a’zolari uchun ham katta quvonch bo‘ldi. Ular ko‘rsatilgan e’tibor va yaratilgan imkoniyatlar uchun mutasaddi rahbarlarga hamda yurtboshimizga cheksiz minnatdorlik bildirdilar.

Bugun Muhabbat yangi ish faoliyatini katta ishtiyoq bilan boshladi. U o‘ziga bildirilgan ishonchni oqlash, sidqidildan mehnat qilish va jamiyatga foyda keltirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Bunday e’tibor va g‘amxo‘rlik esa yurtimizda inson qadri ulug‘lanayotgani, har bir fuqaroning taqdiri davlat siyosatining markazida ekanining yana bir yaqqol ifodasidir.

Darhaqiqat, samimiy muloqot va e’tibor natijasida orzular ro‘yobga chiqmoqda, yangi imkoniyatlar eshigi keng ochilmoqda.

Sarvinoz SHERALIYEVA

UCH AVLOD UCHRASHUVI

QADRIYATLAR VA TARBIYA MAKTABI



Bekobod tumani Yoshlik-2 mahallasi hududida joylashgan 35-maktabda “Uch avlod uchrashuvi” tadbiri o‘tkazildi. Mazkur tadbir avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni mustahkamlash, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va tajriba almashish maqsadida tashkil etildi.

Tadbirda “Nuroniy” jamg‘armasi raisi J.Bo‘rixo‘jayev, tuman nuroniylar jamoatchilik kengashi a’zolari, mahalla raisi, faol nuroniylar hamda o‘quvchi-yoshlar ishtirok etdilar. Shuningdek, “Bir nuroniy — o‘n yoshga mas’ul” tamoyili asosida mahalladagi faol nuroniylarga biriktirilgan uyushmagan va turli muammolarga duch kelayotgan yoshlar ham tadbirga jalb etildi.

Uchrashuv davomida nuroniylar tomonidan hayotiy tajribalar asosida yoshlarning mustahkam bilim olishi, kasb-hunar egallashi va kelajakda yurt ravnaqiga hissa qo‘shadigan munosib farzandlar bo‘lib yetishishi zarurligi ta’kidlandi. Ularning yurtga sadoqatli, bilimli va ma’naviy yetuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekani qayd etildi.

Tadbirda yoshlarni milliy urf-odat va qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash, ularni turli yot g‘oyalar ta’siridan asrash hamda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlashga qaratilgan masalalar yuzasidan ma’ruzalar tinglandi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarori mazmun-mohiyati yuzasidan yoshlar uchun batafsil tushuntirishlar berildi. Qaror ijrosida belgilangan vazifalar va ularning ahamiyati haqida fikr almashildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar bunday uchrashuvlar yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutishi, avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashi hamda ma’naviy muhitni yanada yuksaltirishga xizmat qilishini ta’kidladilar.

Jahongir NURMUHAMMEDOV

FUQAROLAR MUROJAATI

ICHKI YO‘LLAR TA’MIRI — MUAMMO YECHIM TOPDI

Respublika ishchi guruhi hamda Bekobod tumani avtomobil yo‘llaridan foydalanish korxonasi mutasaddilari hamkorligida “og‘ir toifa” ro‘yxatiga kiritilgan Bekobod tumanidagi Pastki Kerayit mahallasi aholisi tomonidan yo‘llangan jamoaviy murojaat o‘rganilib, amaliy chora-tadbirlar belgilandi.

Aholi tomonidan ko‘tarilgan asosiy masala ichki ko‘chalarni ta’mirlash va yo‘l infratuzilmasini yaxshilash bilan bog‘liq edi. Shu munosabat bilan mutaxassislar hududga chiqib, mavjud holatni joyida o‘rganib, batafsil tahlil qildilar.

O‘rganishlar natijasida ichki yo‘llarni bosqichma-bosqich ta’mirlash ishlari yo‘lga qo‘yildi hamda aniq reja asosida amaliy ishlar boshlandi. Natijada mahalla aholisi tomonidan ko‘tarilgan muammo o‘zining ijobiy yechimini topdi.

Mazkur tashabbus davlat organlari va mahalla hamkorligining samarali natijasi bo‘lib, fuqarolarning hayot sifati va harakatlanish qulayligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda “og‘ir toifa”dagi hududlarni obod qilish ishlari bosqichma-bosqich davom ettirilmoqda. Har bir murojaat e’tibor markazida, har bir muammo esa amaliy yechim sari yo‘naltirilmoqda.

Gavhar BEKMURODOVA

EKOLOGIK NAZORAT

“TOZA HAVO” TADBIRI DAVOM ETMOQDA

Atmosfera havosining avtotransport vositalari ta’sirida zararli moddalar bilan ifloslanishini kamaytirish, ularning zaharlilik darajasini nazorat qi- lishni kuchaytirish, shuningdek, avtomobillarga yoqilg‘i quyish va texnik xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, avtokorxonalar hamda avtomobil yo‘llarida atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida respublika miqyosida “Toza havo” tadbirining birinchi bosqichi joriy yilning 10-aprelidan 10-mayiga qadar o‘tkazilmoqda.

Toshkent viloyati va Bekobod tumani hokimligining hamda Toshkent viloyati Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasining tegishli buyruqlariga asosan mazkur tadbirni amalga oshirish bo‘yicha hamkor tashkilotlar ishtirokida aniq ish rejasi ishlab chiqildi.

Unga muvofiq, Bekobod tumani Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bo‘limi, Toshkent viloyati Sanitariya-epidemiologiya boshqarmasining Bekobod tuman bo‘limi hamda tuman IIB Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi bilan hamkorlikda tadbir tashkil etildi.

Tadbir doirasida avtotransport vositalarining atmosfera havosiga zararli ta’sirini kamaytirish, ularning texnik holatini tekshirish hamda chiqindilar miqdorini nazorat qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, “Toza havo” oyligining birinchi bosqichi doirasida nazorat tadbirlari tuman hududidagi “Oybek” nazorat postida tashkil etilib, zarur o‘lchov uskunalari, jumladan gaz analizatorlari bilan ta’minlandi.

Shuningdek, tadbir davomida targ‘ibot-tashviqot ishlari ham izchil olib borilmoqda. Korxona va tashkilotlarda “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun talablari yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda hamda belgilangan tartibda nazorat tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlanganidek, “Toza havo” oyligida faol ishtirok etish har bir mehnat jamoasi va har bir fuqaroning burchidir. Mazkur tadbirning asosiy maqsadi — ona tabiatni asrash, atmosfera havosini muhofaza qilish va eng avvalo inson salomatligini ta’minlashdir. Zero, toza havo — sog‘lom hayot garovidir!

Muhammad FAZILOV,
Bekobod tumani
Ekologiya va
iqlim o‘zgarishi bo‘limi
boshlig‘i

OTA-ONA MAS’ULIYATI

SOG‘LOM BOLA — YURT KELAJAGI



Farzandlarimiz Yaratganning bizga bergan cheksiz ne’matlaridan biri bo‘lishi bilan birga, har bir ota-ona zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydigan omonatdir. Bu omonatni asrash — farzandlarga go‘zal tarbiya berish, ularni ham ma’nan, ham jismonan sog‘lom etib voyaga yetkazish, jamiyat va el-yurt ravnaqiga munosib hissa qo‘shadigan shaxslar qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Demak, ota-onaning eng muhim vazifasi — farzandni eng yaxshi shaklda tarbiyalashdir. Bolaga beriladigan tarbiya va axloq, shubhasiz, ota-onaning o‘zidagi tarbiya va odobning aksidir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, farzand tarbiyasi ko‘p jihatdan ota-ona tarbiyasining mahsulidir.

Ruhiy-ma’naviy tarbiya esa farzandga moddiy sabablarga bog‘liq bo‘lmagan adolat, sevgi, rahm-shafqat, ezgulik va shijoat kabi fazilatlarning mohiyatini anglatish hamda ularni ana shu xislatlarga o‘rgatishdir. Buning uchun ota-onalar ushbu tuyg‘ularning bolada qay darajada shakllanayotganini doimiy nazorat qilib borishlari zarur.

Ma’naviyat tarbiyaning eng ta’sirchan vositasi ekan, undan oqilona foydalanish, farzandlarimizni vatanparvarlik, rostgo‘ylik, xalqsevarlik kabi yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashimiz lozim. Farzandlarga sevmoq va sevilmoqni, mehribon bo‘lishni o‘rgatish uchun ota-onaning o‘zi ham ularga mehr ko‘rsatishi, ularni bag‘riga bosib, e’tibor va muhabbatini ayamasligi muhimdir.

Bolani yaxshi ishlari uchun moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, uni quvontirish orqali yaxshilikka undash mumkin. Shu bilan birga, farzandlarimizning zamonaviy bilimlarni puxta egallashiga ham alohida e’tibor qaratishimiz zarur.

Yurtimizda barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu borada keng imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Zotan, xalqimiz azaldan farzand tarbiyasiga alohida e’tibor bilan qarab kelgan.

Ma’rifatparvar allomamiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir.” Darhaqiqat, yurtga, Ona Vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy qadriyatlardandir.

Ana shu noyob fazilatlarni asrab-avaylash va yanada rivojlantirish, farzandlarimizni ozod va erkin O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash har birimizning ustuvor vazifamizdir. Zero, kelajagimiz qanday bo‘lishi bugun qanday avlodni tarbiyalayotganimizga bevosita bog‘liqdir.

Zamira JO‘RAYEVA,
TTB bosh shifokorining
onalik va bolalikni
muhofaza qilish bo‘yicha
o‘rinbosari

YONG‘IN XAVFSIZLIGI — HAR BIRIMIZNING MAS’ULIYATIMIZ

FUQARO MUHOFAZASI



Bekobod tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi xodimlari tomonidan tuman hududidagi mahallalarda “Fuqaro muhofazasi oyligi” doirasida aholi o‘rtasida yong‘in xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda inson hayoti va mol-mulkini asrash maqsadida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Shu munosabat bilan fuqarolardan quyidagi tavsiyalarga qat’iy amal qilish so‘raladi:

— Elektr jihozlaridan foydalanishda ehtiyot choralariga rioya qilish, nosoz sim va qurilmalardan foydalanmaslik;

— Elektr qurilmalarini qarovsiz qoldirmaslik;

— Ochiq olov manbalaridan (sham, gugurt, gaz plitalari va boshqalar) foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish;

— Bolalarning olov bilan o‘ynashiga yo‘l qo‘ymaslik;

— Yonuvchan moddalarni (benzin, gaz ballonlari va boshqalar) belgilangan tartibda, xavfsiz joylarda saqlash;

— Yong‘in sodir bo‘lgan taqdirda zudlik bilan 101 qisqa raqamiga qo‘ng‘iroq qilish.

Mazkur tavsiyalarga rioya etish orqali yong‘in xavfi sezilarli darajada kamaytiriladi hamda favqulodda vaziyatlarning oldi olinadi.

Nuriddin KAMILOV,
Bekobod tumani FVB FVPB kichik inspektori
1-darajali serjant,
Muhammadjon NABIYEV,
Bekobod tumani FVB FVPB kichik inspektori
kichik serjant

Tibbiy maslahat

KUYDIRGI KASALLIGI VA UNING PROFILAKTIKASI

Kuydirgi kasalligining qo‘zg‘atuvchisi — Bacillus anthracis bo‘lib, aerob, harakatsiz tayoqchasimon bakteriyadir. Uning uzunligi 5–10 mikron, eni esa 1–1,5 mikronni tashkil etadi. Ushbu mikroorganizmlar tashqi muhit sharoitiga qarab vegetativ va spora shaklida mavjud bo‘ladi.

Kuydirgi qo‘zg‘atuvchisining o‘ziga xos xususiyati — tashqi muhitda va hayvon organizmida maxsus kapsula hosil qilib, kuchli zahar ajratishidir. Spora shaklida esa kislorod yetishmaydigan hamda quruq tuproqlarda 100 yilgacha saqlanib qolish xususiyatiga ega.

Mazkur kasallikka asosan qoramollar, qo‘y, echki, ot, eshak va tuya kabi hayvonlar moyil hisoblanadi. It, mushuk hamda yovvoyi yirtqich hayvonlar kamroq zararlanadi. Sovuqqon hayvonlar va parrandalar esa bu kasallikka chalinmaydi. Shu bilan birga, yovvoyi hayvonlar va ayrim qushlar (masalan, qarg‘a, quzg‘un) kasallangan hayvon go‘shti yoki jasadini iste’mol qilgach, kuydirgi sporalarini uzoq muddat davomida tashqi muhitga tarqatishi mumkin.

Kasal hayvonlar asosiy infeksiya manbai bo‘lib, ulardan olingan mahsulotlar — go‘sht, sut, teri va boshqa xomashyolar, shuningdek, zararlangan tuproq kasallik tarqalishiga sabab bo‘ladi. Kasallikning yashirin (inkubatsion) davri odatda 1–3 kun, ba’zan 8 kungacha davom etadi. U o‘tkir, yarim o‘tkir yoki ba’zan yashin tezligida kechishi mumkin.

Kuydirgi kasalligining oldini olish uchun quyidagi choralar muhim ahamiyatga ega:

— hayvonlarni o‘z vaqtida ro‘yxatga olish va muntazam emlash;

— veterinariya-sanitariya tadbirlarini (dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya) o‘z vaqtida o‘tkazish;

— chorva mollarini veterinariya mutaxassislari nazorati ostida saqlash;

— hayvonlarni faqat belgilangan joylarda — maxsus so‘yish maydonchalari va kushxonalarda so‘yish.

Kasallik odamga asosan kasal hayvon bilan bevosita aloqada bo‘lganda, ya’ni uni so‘yish, go‘shtini qayta ishlash jarayonida, shuningdek suv, tuproq va chorvachilik mahsulotlari orqali yuqadi. Shu sababli bu kasallik ko‘proq chorvadorlar, qassoblar va teri bilan ishlovchi mutaxassislarda uchraydi.

Infeksiya inson organizmiga nafas yo‘llari, teri yoki og‘iz orqali kiradi. Odamlarda kuydirgining teri, o‘pka, ichak hamda septik shakllari uchraydi.

Teri shaklida kasallik dastlab kichik bo‘rtma (papula) paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. U keyinchalik ichida suyuqlik to‘plangan pufakchaga aylanadi va yorilgach, qora qo‘tir hosil qiladi. Atrofida yangi pufakchalar paydo bo‘lib, jarohat kattalashadi. Bu holat odatda “kuydirgi xo‘ppozi” deb ataladi. Kasallik ko‘pincha yuz, qo‘l, bo‘yin yoki oyoq sohalarida kuzatiladi. Bunda tana harorati ko‘tarilishi, bosh og‘rig‘i, holsizlik va uyqusizlik kabi belgilar ham namoyon bo‘ladi. Odatda 2–3 hafta ichida bemor sog‘ayadi.

O‘pka shaklida esa to‘satdan isitma ko‘tarilib, yo‘tal, qonli balg‘am ajralishi, ko‘krak qafasida og‘riq va nafas olish qiyinlashuvi kuzatiladi. Ichak shakli esa ovqatdan zaharlanishga o‘xshash belgilar — ko‘ngil aynishi, qusish, qorin og‘rig‘i va ich dam bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu shakllar nisbatan kam uchraydi.

Davolashda penitsillin guruhidagi antibiotiklar va maxsus immun preparatlar qo‘llaniladi. Profilaktika maqsadida hayvonlar bilan ishlovchi kasb egalari — chorvadorlar, qassoblar, teri ishlab chiqaruvchilar kuydirgiga qarshi emlanadi.

Kasallikning oldini olish uchun xonadonlarda boqilayotgan chorva mollarini har yili kuydirgiga qarshi emlatish, ularni faqat veterinariya nazorati ostida so‘yish zarur.

Shuningdek, go‘sht mahsulotlarini faqat rasmiy savdo nuqtalari — do‘kon va bozorlardan xarid qilish tavsiya etiladi.


Kuydirgi kasalligiga qarshi kurashishda ogohlik va ehtiyot choralariga rioya etish — har birimizning burchimizdir.

Ahmadjon MIRBOBOYEV,
Bekobod tumani hayvonlar kasalliklari tashxisi va
oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi
davlat markazi direktori

Raqamli ta‘lim

TALABALARNING SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH QOIDALARI

Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining joriy etilishi, ularning pedagogik jarayonga ta’siri hamda AIdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan etik muammolar kompleks ilmiy jihatdan tahlil etilmoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt nafaqat texnik sohalarda, balki ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni amalga oshirayotgan muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, AI texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning afzalliklari hamda xavf-xatarlari ilmiy asosda o‘rganilmoqda.



AI texnologiyalari o‘quv jarayonini individuallashtirish, talabalar bilim darajasini tahlil qilish, tezkor axborot yetkazish va o‘quv materiallarini optimallashtirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ular yordamida o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, interaktiv ta’lim muhitini shakllantirish hamda talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Biroq AI texnologiyalarining keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq qator dolzarb muammolar ham mavjud. Xususan, akademik halollik tamoyillarining buzilishi, plagiat holatlarining ortishi, talabalarning tayyor javoblarga ortiqcha tayanishi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatining susayishi kabi salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Bu holatlar ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi hamda kelajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini pasaytirishi mumkin.

Shu o‘rinda “AI etikasi” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy tamoyillari — halollik, shaffoflik, javobgarlik va intellektual mulk huquqlariga rioya qilish kabilar ta’lim jarayonida muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. AIdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, talabalarni texnologiyalardan ongli va mas’uliyatli foydalanishga o‘rgatish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

AIdan noto‘g‘ri foydalanish nafaqat talabaning akademik natijalariga, balki uning kelajakdagi kasbiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ta’lim muassasalarida AIdan samarali foydalanish uchun maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish hamda nazorat tizimini kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimining rivojlanishida muhim innovatsion vosita hisoblanadi. Biroq uning samarali va xavfsiz qo‘llanilishi faqat aniq etik me’yorlarga rioya qilingan taqdirdagina ta’minlanadi. Shu bois AIdan foydalanishda muvozanatli yondashuv, akademik halollik va mas’uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hakima NAMAZOVA,
Bekobod tuman axborot-kutubxona markazi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati rahbari

Yoshlar sporti

YANGI NATIJALAR SARI HAMKORLIK



Bekobod tuman Sport maktabi hamda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘rtasida imzolangan memorandum ijrosini ta’minlash maqsadida Bekobod tuman Sport maktabida muhim sport-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Mazkur tadbir doirasida universitetning kamondan otish ixtisosligi bo‘yicha dotsent Ahmadov Dilshod o‘zining malakali sportchilari bilan tashrif buyurib, Sport maktabi hamda “Jasorat” maktabi o‘quvchilari uchun mahorat saboqlari va ochiq seminar o‘tkazdi.

Tadbir davomida yosh sportchilarga kamondan otish sport turining nazariy asoslari, texnik usullari hamda zamonaviy tayyorgarlik jarayonlari haqida batafsil tushunchalar berildi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali ishtirokchilar o‘z mahoratlarini oshirish, o‘z ustida ishlash hamda mutaxassislardan professional tavsiyalar olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Alohida ta’kidlash joizki, Bekobod tumanida kamondan otish sportining rivojlanishida trener Mamadaliyeva Shahribonu alohida o‘rin tutadi. Aynan ushbu murabbiy tomonidan mazkur sport turi tumanga olib kirilib, bugungi kunda uning ommalashuvi va rivojiga katta hissa qo‘shib kelinmoqda.

Murabbiylar mehnatining samarasi shogirdlar natijalarida yaqqol namoyon bo‘ladi deganlaridek, iqtidorli sportchilar — Abduxoshimova Go‘zal, Maxmudova Munisa, Ne’matjonov Elbek hamda Qobiljonova Bibimayram O‘zbekiston chempionati va kubogi musobaqalarida yuqori natijalarga erishib, tuman sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.

Ushbu tadbir yoshlar o‘rtasida sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda ularni professional darajada tayyorlash yo‘lida muhim ahamiyat kasb etdi. Bunday hamkorliklar hududlarda sport infratuzilmasini rivojlantirish, murabbiylar malakasini oshirish va sport turlarini keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

Tadbir yakunida tomonlar kelgusida ham samarali hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari, seminar-treninglar hamda musobaqalarni muntazam tashkil etish bo‘yicha o‘zaro kelishib oldilar.

Jahongir SULTONOV,
Bekobod tuman Sport maktabi yo‘riqchi-uslubchisi

Pedagog minbari



TA’LIM VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISH

Bekobod tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri Kamoliddin Prnazarov tashabbusi bilan 39-umumta’lim maktabida o‘quvchilar o‘rtasida aqlni charxlovchi sport turlari — shaxmat va shashka bo‘yicha maktablararo musobaqa tashkil etildi.

Musobaqada barcha maktablardan iqtidorli o‘quvchilar ishtirok etib, o‘z mahoratlarini sinovdan o‘tkazdilar. Bellashuv yuqori saviyada va ko‘tarinki ruhda o‘tdi. Har bir ishtirokchi g‘alaba uchun astoydil harakat qilib, o‘zining strategik fikrlash qobiliyatini namoyon etdi.

Tadbir davomida o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakllantirildi. “Vatan tayanchi harakati” a’zolari ham musobaqada faol ishtirok etib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazdilar. Ular yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik, jamoaviylik va intizom tuyg‘ularini targ‘ib etishda ham o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlar aniqlandi. 5–8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida 39-maktab 1-o‘rinni, 1-maktab 2-o‘rinni, 14-maktab esa 3-o‘rinni egalladi. G‘oliblar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Mazkur tadbir o‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda sport va aqliy o‘yinlarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qildi.

Murodjon KOMILOV,
Bekobod tumani 39-umumta’lim maktabi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchisi, Vatan tayanchi otryadi rahbari
Enaqiz XUDOYBERDIYEVA, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi

“FUTBOLIMIZ KELAJAGI SENING QO‘LINGDA”

Xushxabar

Toshkent viloyatida umumta’lim maktablarining 7–8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan mini-futbol bo‘yicha viloyat musobaqasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Musobaqa Nurafshon shahridagi mini-futbol maydonlarida bo‘lib o‘tdi.

Qiziqarli va shiddatli kechgan uchrashuvlarda yosh futbolchilar g‘oliblik uchun munosib kurash olib borishdi. O‘yinlar do‘stona va sport ruhida o‘tgani bilan barcha jamoalar yuqori tayyorgarlik darajasini namoyon etdi.

Musobaqa natijalariga ko‘ra, Bekobod tumanidagi 1-IDUM futbol jamoasi mutlaq g‘olib deb topilib, faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Ushbu musobaqa yoshlar orasida futbolni ommalashtirish, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash hamda kelajak sportchilarini saralab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umida O‘SAROVA

Iqtisodiy tahlil

QARZ — YUKMI YOKI TARAQQIYOT DVIGATELI?

Zamonaviy globallashuv sharoitida davlat qarzi iqtisodiy siyosatning ajralmas instrumentlaridan biriga aylangan. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda qarz jalb etmasdan turib yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirgan yoki jadal iqtisodiy o‘sishga erishgan davlatni uchratish mushkul. Shu nuqtai nazardan, davlat qarzi masalasini baholashda uni mutlaq salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida emas, balki muayyan iqtisodiy sharoit va boshqaruv sifati bilan bog‘liq kompleks jarayon sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy nazariyada davlat qarzining iqtisodiy o‘sishga ta’siri nisbiy xarakterga ega ekani ta’kidlanadi. Xususan, Laffer egri chizig‘i konsepsiyasiga o‘xshash yondashuvlarga ko‘ra, qarz ma’lum chegaragacha iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi, biroq u kritik darajadan oshgach, iqtisodiy o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu chegaraviy ko‘rsatkich odatda yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan 60–70 foiz atrofida baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat qarzining YaIMga nisbati hozirgi bosqichda nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. 2026-yil boshidagi baholashlarga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkich 32–35 foiz diapazonida shakllangan bo‘lib, xalqaro standartlar nuqtai nazaridan “xavfsiz hudud” sifatida tavsiflanadi. Taqqoslash uchun, rivojlangan davlatlar — xususan, AQSh va Yaponiya iqtisodiyotlarida davlat qarzining YaIMga nisbati 100 foizdan ancha yuqori darajada shakllangan.

Mazkur holat O‘zbekiston iqtisodiyotida qarz yukining nisbatan boshqariladigan darajada ekanini ko‘rsatadi va fiskal barqarorlik nuqtai nazaridan ijobiy omil sifatida baholanadi.

Davlat qarzining iqtisodiy samaradorligi, avvalo, uning qaysi sohalarga yo‘naltirilayotganiga bevosita bog‘liq. O‘zbekiston amaliyotida jalb etilayotgan tashqi qarz mablag‘lari asosan uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi strategik yo‘nalishlarga safarbar etilmoqda.

Mazkur investitsiyalar iqtisodiy multiplikativ effektni yuzaga keltirib, kelgusida soliq tushumlarining oshishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va umumiy iqtisodiy faollikning kengayishiga xizmat qilishi kutiladi.

Davlat qarzi bilan bog‘liq risk omillarini inkor etib bo‘lmaydi. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

– Valyuta riski — tashqi qarzning asosiy qismi xorijiy valyutada jalb etilgani sababli milliy valyuta kursining o‘zgarishi qarz yukining real hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;

– Samaradorlik riski — agar qarz hisobidan moliyalashtirilgan loyihalar kutilgan iqtisodiy natijani bermasa, qarz “o‘lik kapital”ga aylanishi mumkin.

Mazkur omillar davlat qarzini boshqarishda ehtiyotkorlik, puxta rejalashtirish va institutsional nazorat mexanizmlarini kuchaytirishni talab etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida davlat qarzi iqtisodiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi omil emas, balki to‘g‘ri boshqarilgan taqdirda o‘sishni jadallashtiruvchi muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunda asosiy vazifa qarz hajmini sun’iy ravishda qisqartirish emas, balki jalb etilgan mablag‘larning iqtisodiy samaradorligini ta’minlashdan iborat.

Barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish uchun davlat qarzi siyosatida shaffoflik, fiskal intizom va hisobdorlik tamoyillariga qat’iy rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi qarz — ertangi avlod zimmasiga yuklanadigan iqtisodiy majburiyatdir.

Nilufar MANSURBOYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar instituti
Iqtisodiyot yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

TARAQQIYOT SARI QADAMMI YOKI QARAMLIK SARI YO‘L?

Bugungi yoshlar va internet



Bugungi kunda internet hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Bir necha yil avval odamlar yangiliklarni asosan televizor orqali bilgan bo‘lsa, hozir esa bir soniya ichida butun dunyo voqealaridan xabardor bo‘lish mumkin. O‘zbekistonda ham mustaqillikdan keyingi davrda, ayniqsa so‘nggi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlar jadal rivojlanib, jamiyat hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Internet tufayli odamlar endi bilim olish uchun faqat kitob yoki o‘qituvchiga bog‘lanib qolmaydi. Har kim istagan ma’lumotini osongina topa oladi. Talabalar, o‘quvchilar va oddiy fuqarolar ham onlayn kurslar orqali yangi kasblarni o‘rganmoqda. Bu esa jamiyatning umumiy saviyasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Internet nafaqat axborot manbai, balki daromad topish vositasiga ham aylandi. Bugungi kunda ko‘plab yoshlar onlayn savdo, frilans va blogerlik orqali daromad topmoqda. Bu esa yangi kasblarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ayniqsa, kichik biznes egalari ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘z mahsulotlarini reklama qilib, keng auditoriyaga chiqish imkoniga ega bo‘ldi.

Internetning salbiy tomonlari ham tobora yaqqol ko‘rinib bormoqda. Eng katta muammolardan biri — odamlarning virtual hayotga haddan tashqari berilib ketishidir. Bugungi kunda ko‘plab yoshlar real hayotdan ko‘ra ko‘proq vaqtini telefon ekranida o‘tkazmoqda. Natijada ular atrofdagi voqealarni kamroq his qila boshlaydi. Do‘stlar bilan jonli muloqot o‘rnini yozishmalar egallaydi. Odamlar tabiatni, haqiqiy hayotni ko‘rish o‘rniga, dunyoni ekran orqali qabul qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar insonlarning qiziqishlarini ham o‘zgartirib yubormoqda. Avvallari kitob o‘qish, sport bilan shug‘ullanish yoki foydali mashg‘ulotlar bilan vaqt o‘tkazish odatiy bo‘lgan bo‘lsa, hozir ko‘pchilik vaqtini behuda kontent tomosha qilishga sarflamoqda. Yana bir muhim muammo — qaramlikdir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ba’zi yoshlar uchun oddiy vositadan ko‘ra kuchli bog‘liqlikka aylanib bormoqda. Bu esa vaqtni behuda sarflash, diqqatning pasayishi va ruhiy holatga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa va tezkor kontentlarga o‘rganib qolish chuqur fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarining susayishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, virtual hayot bilan real hayotni solishtirish natijasida o‘zidan qoniqmaslik, tushkunlik va yolg‘izlik hissi kuchayishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalmoqda.

Shunday ekan, internet va ijtimoiy tarmoqlarni inkor etish emas, balki ulardan ongli va me’yor bilan foydalanish muhimdir. Chunki ular to‘g‘ri ishlatilganda katta imkoniyatlar eshigini ochadi, noto‘g‘ri foydalanilganda esa inson va jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi muqarrar.

Ahmadjon TURSUNBOYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Yuqoridagi maqolalar Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti Valisher ABIROV hammualliflikda tayyorlangan.

XUSUSIY NAZORAT NIMANI O‘ZGARTIRADI?

Tasavvur qiling: siz katta orzu bilan uy qurishni boshladingiz. Hammasi yaxshi ketayotgandek tuyuladi, biroq bir necha oy o‘tgach devorlarda yoriqlar paydo bo‘ladi yoki poydevorda muammo yuzaga chiqadi. Eng yomoni — bunday xatolarni faqat qurilish tugagandan keyin bilasiz. Endi esa bunday holatlarning oldini olish maqsadida yangi tizim joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-apreldagi 167-son qaroriga muvofiq, “Yakka tartibdagi uy-joylar hamda kichik hajmdagi noturar bino va inshootlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish ishlari yuzasidan xususiy qurilish nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomga ko‘ra, yakka tartibdagi uylar va kichik obyektlar qurilishida mustaqil nazorat tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali qurilish jarayonini mutaxassislar doimiy kuzatib boradi va har bir bosqich alohida tekshiriladi.

Nizomga ko‘ra, xususiy qurilish nazorati quyidagi obyektlarga nisbatan qo‘llaniladi:
— ikki qavatdan yuqori bo‘lmagan (sokol qavati hisobga olinmaydi) yakka tartibdagi uy-joylar;
— balandligi yer yuzasidan o‘n metrdan oshmaydigan uylar;
— umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan oshmaydigan (yordamchi xo‘jalik binolarisiz) uylar;
— qurilish hajmi 300 kub metrdan oshmaydigan noturar bino va inshootlar;
— kichik hajmdagi xizmat ko‘rsatish obyektlari (masalan, do‘kon, ustaxona);
— yengil turdagi konstruksiyali qurilmalar.

Demak, ushbu tartib asosan oddiy fuqarolar va kichik tadbirkorlar tomonidan quriladigan obyektlarga mo‘ljallangan. Yirik, murakkab yoki ko‘p qavatli inshootlarga nisbatan bu tartib tatbiq etilmaydi.

Avvalo, buyurtmachi (uy egasi) va nazoratchi o‘rtasida shartnoma tuziladi. Shundan so‘ng nazorat jarayoni boshlanadi. Nazorat maxsus malakaga ega, sertifikatlangan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Jarayon quyidagi tartibda tashkil etiladi:
— har oyda kamida bir marta obyekt tekshiriladi;
— qurilishning asosiy bosqichlari majburiy tarzda nazoratdan o‘tkaziladi (poydevor, ko‘taruvchi konstruksiyalar, devorlar, tom va boshqalar);
— har bir tekshiruv 1 ish kunidan oshmasligi kerak.

Buyurtmachi har bir qurilish bosqichi yakunlanishidan kamida 2 kun oldin nazoratchini yozma yoki elektron shaklda xabardor qiladi. Shundan so‘ng nazoratchi 1 ish kuni ichida obyektga mas’ul mutaxassisni biriktiradi.

Tekshiruv yakuniga ko‘ra, nazoratchi 5 ish kuni ichida xulosa beradi. Agar qurilish talablarga muvofiq bo‘lsa, ijobiy xulosa beriladi. Agar kamchiliklar aniqlansa, ular bartaraf etilmaguncha ijobiy xulosa berilmaydi va obyekt qayta ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Uy qurishda yangi tartib



Yana bir muhim jihat shundaki, nazorat jarayoni faqat tashqi ko‘rik bilan cheklanmaydi. Nazoratchi loyiha hujjatlariga moslikni ham tekshiradi, ya’ni qurilish tasdiqlangan chizmalar va belgilangan me’yorlar asosida olib borilayotganini baholaydi.

Umuman olganda, xususiy qurilish nazorati — bu uy qurayotgan inson uchun qo‘shimcha xarajat emas, balki katta yo‘qotishlarning oldini oladigan muhim himoya vositasidir. Endilikda har kim o‘z uyini nafaqat chiroyli, balki sifatli va xavfsiz qurish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Charosxon NEMATOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi

XOTIRA BOR EKAN — MILLAT BARHAYOT

9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI



1979-yil 1-may. Bekobod tumani rahbarlari, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari 1-may – bayram namoyishidan so‘ng.

UNUTMOQ OSONMAS...

Ergash Ro‘ziboyev deganda, bir paytlar tumanimizda turli mas’uliyatli vazifalarda ibrat ko‘rsatib mehnat qilgan eng faol, jonkuyar inson ko‘z oldimizga keladi. Gap shundaki, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi Ergash Ro‘ziboyev hayotlik davrida salkam yarim asr hokimiyat tizimida halol xizmat qilgan, ko‘plab yoshlarning ustozi, ardoqli insonlardan biri edi.



Bugun shukuhli kunlarda o‘tganlarni qadrlash, ularning xotirasiga hurmat bajo keltirish barchamiz uchun ham farz, ham qarzdir.

Suratda: Ergash Ro‘ziboyev Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Xoliqberdi Allaberdiyev bilan tarixga muhrlangan suhbat onlari.

Surat muallifi: Sultonboy DEHQONOV



1980-yil. Bekobod tumani Mavlonov sovxozi oltinchi bo‘limi (hozirgi Mustaqillik mahallasi)dagi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari. G‘alabaning 35 yilligi bayramida.



1982-yil. Bekobod tumani Lenin nomli kolxozida beshta Respublikadagi dongdor qishloq xo‘jaligi xodimlari.

Suratlar O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi Muhiddin QORABEKOVNING shaxsiy arxividan

Fidoyi insonlar

JANGOVAR RUH VA BUNYODKOR HAYOT YO‘LI

Ikkinchi jahon urushi yillarida minglab o‘zbek o‘g‘lonlari qatori Xolbo‘ta Dehqonov ham yosh bo‘lishiga qaramay, Vatan himoyasi uchun safga qo‘shildi. U hali maktabni tugatishga ulgurmasdan, 1941-yilda frontga yo‘l oldi. Qisqa tayyorgarlikdan so‘ng esa 1942-yildan boshlab G‘arbiy frontda og‘ir janglarda ishtirok etdi. Moskva va Smolensk yo‘nalishlaridagi qattiq to‘qnashuvlar, Belorussiya hududlarini ozod etish jarayonlari uning hayotida unutilmas sinovlar bo‘ldi. Yosh askar bu janglarda nafaqat jasorat, balki mustahkam iroda bilan chiniqdi.

Urush yakunlangach ham Xolbo‘ta Dehqonov bir muddat harbiy xizmatni davom ettirdi. 1946-yilgacha armiyada qolib, harbiy intizom va fidoyilikni o‘z hayotiy mezoniga aylantirdi. Vatanga qaytgach esa u tinch hayotda ham faol bo‘lishni tanladi.

1948-yildan boshlab yoshlar bilan ishlashga kirishdi. Tuman miqyosida yoshlar tashkilotiga rahbarlik qilib, yangi avlodni tarbiyalash, ularni jamiyat hayotiga jalb etishda muhim rol o‘ynadi. Tashkilotchilik qobiliyati, mas’uliyat hissi va halolligi uni tez orada yetakchi kadrlardan biriga aylantirdi. Keyingi yillarda u turli rahbarlik lavozimlarida ishlab, tuman hayotining muhim sohalariga o‘z hissasini qo‘shdi.

1963-yil Xolbo‘ta Dehqonov hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. U tuman ijroiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari etib tayinlanib, uzoq yillar davomida hudud taraqqiyoti yo‘lida samarali mehnat qildi. Ayniqsa, ta’lim, tibbiyot, madaniyat va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar uning nomi bilan chambarchas bog‘liq.

1960–70-yillarda tuman markazini yangi hududga ko‘chirish, infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy binolar barpo etish kabi keng ko‘lamli loyihalarda faol ishtirok etdi. Bugungi kunda ham



Zafar shaharchasida qad rostlagan ko‘plab inshootlar o‘sha davr mehnatining yorqin natijasi sifatida xizmat qilmoqda.

Qahramonimiz mehnat faoliyatini yakunlagach ham jamiyatdan chetda qolmadi. Faxriylar kengashiga rahbarlik qilib, urush qatnashchilari va keksalarning muammolari bilan yaqindan shug‘ullandi. Ayniqsa, urushda halok bo‘lgan va bedarak yo‘qolgan yurtdoshlar xotirasini tiklash yo‘lidagi sa’y-harakatlari alohida e’tiborga loyiq.

Hayoti davomida halol mehnat, yurtga sadoqat va insoniylik tamoyillariga amal qilgan Xolbo‘ta Dehqonov nafaqat fidoyi rahbar, balki namunali oila boshlig‘i ham bo‘ldi. U farzandlarini ham ana shu ruhda tarbiyalab, ularni jamiyatga foydali insonlar etib voyaga yetkazdi.

Xulosa qilib aytganda, Xolbo‘ta Dehqonovning umr yo‘li – bu jasorat, mehnatsevarlik va fidoyilik timsolidir. Uning hayoti va faoliyati bugungi avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib qoladi.

Sarvinoz SHERALIYEVA

MEHNAT SHARAFI

ODDIY HAYOTNING ULKAN SABOQLARI


Ulug‘ Vatan urushi yillarida mardlik va fidoyilik timsoli bo‘lgan qahramonlar bilan bir qatorda, yurt ravnaqi yo‘lida tinimsiz mehnat qilgan, mahalla va tuman hayotini boshqarib, oddiy, ammo muhim vazifalarni bajargan insonlar xotirasi ham shunchalik aziz va e’zozga loyiqdir.

Ular maktabda dars bergan ustozlar, bemorlarni davolagan shifokorlar, bog‘ va ko‘chalar obodligini ta’minlagan obodonlashtiruvchilar, hunarmandlar, fermerlar, madaniyat va sport sohasida fidoyilik ko‘rsatgan insonlardir. Ularning xizmatlari balandparvoz bayonotlarda ko‘rinmasligi mumkin, ammo jamiyatimizning ma’naviy va moddiy rivojida ulkan o‘rin tutadi. Ularning xotirasini asrash nafaqat hurmat, balki kelajak avlodlarga mehnat, sadoqat va insoniylik namunalarini yetkazishdir.

Men butun umrini qishloqqa bag‘ishlagan, dalada oddiy suvchi bo‘lib mehnat qilgan, o‘z tomorqasida ekin ekib, hovlisida mo‘jazgina bog‘ yaratgan otam — To‘ychiyev Sanjar ota haqida xotirlayman.

Otamning mehnati oilamiz tinchligi va mahalla hayotining barqarorligi uchun mustahkam poydevor bo‘ldi. U butun umrini tumanimiz qishlog‘ida o‘tkazdi. Bolaligi bog‘-rog‘lar, dalalar va kanallar bo‘yida o‘tdi. Yoshligidan mehnatga mehr qo‘yib, tomorqachilik va sug‘orish ishlarini oilaviy an’ana sifatida davom ettirdi.

Dalada suvchi bo‘lish oddiy nom, ammo katta mas’uliyatdir. Otam dalalarni o‘z vaqtida sug‘orish, suvni tejab taqsimlash, kanallarni nazorat qilish bilan shug‘ullanar edi. Qishloq xo‘jaligida suv — hayot demak. Uni to‘g‘ri boshqarish hosilning taqdiri bilan chambarchas bog‘liq.



Hovlimizda tartibli, mo‘jazgina bog‘imiz bor edi. Unda pomidor, bodring, turli ko‘katlar, mevali daraxtlar va yong‘oq yetishtirilardi. Tomorqadan olingan hosil oilamiz ehtiyojini qondirar, ortgani esa qo‘shnilar bilan baham ko‘rilardi. Bu bog‘ nafaqat tirikchilik manbai, balki oilamiz uchun iliq xotiralar maskani ham edi.

Otam onam bilan birgalikda farzandlarini oq yuvib, oq taradi — bizni mehnatga, hurmatga va sadoqatga o‘rgatdi. Bugun har birimiz o‘z yo‘limizni topgan bo‘lsak, bu ota-onamizning sabri, mehribonligi va tinimsiz mehnati evazigadir.

Otam oilada qattiqqo‘l, ammo adolatli inson edi. U mahalla hayotida ham faol bo‘lib, rasmiy lavozimda ishlamagan bo‘lsada, doimo odamlarga yordam berardi. Bog‘dorchilik, sug‘orish tizimi, obodonlashtirish ishlari bo‘yicha o‘z maslahatlarini ayamagan.

Otamning vafoti oilamiz uchun katta yo‘qotish bo‘ldi. Ammo uning hayoti bizga muhim saboqlarni meros qoldirdi: mehnat qadri, oila mas’uliyati, jamoaga sadoqat va hayotning oddiy, ammo mazmunli tomonlarini qadrlash.

Tumanimizda otam kabi mehnatkash, kamtar insonlar ko‘p. Ularni unutmaylik. Ularning hayotidan saboq olib, o‘z oilamiz, mahallamiz va Vatanimiz uchun yanada yaxshiroq kelajak yaratishga intilaylik.

Zarifa ESIRGAPOVA,
Bekobod tuman axborot-kutubxona markazi direktori,
Xalq deputatlari Bekobod tuman kengashi deputati

MARDLIK MAKTABI

IBRAT

Tuproq g‘ubori ko‘tarilib turadigan tor ko‘cha kech tushishi bilan bolalar shovqiniga to‘ladi. Hozir ham mahalladagi bolalar qo‘llariga yog‘ochdan yasalgan katta-kichik “avtomat”larni tutgancha “urush-urush” o‘ynashyapti. Ko‘chaning ko‘plab muyulishlari bolalarga berkinish uchun ayni muddao.

Muyulishdagi qiya ochiq yog‘och eshik oldida yog‘och avtomatini bag‘riga bosib, “yov”ni kuzatayotgan Inomjon “paq” etgan tovush kelgan tomonga qarab, “paq-paq” deya ovoz chiqara boshladi. Bir zumda bu tovushlar daraxt ortidan, uylar tomidan ham eshitila boshladi. Ko‘cha bolalar qiy-chuviga to‘lib ketdi.

O‘yin qizigan pallada kimningdir qo‘lidagi yog‘och avtomat Ruslanga tegib ketdi. U talato‘pdan chiqmoqchi bo‘ldi, ammo chiqa olmay oyog‘i qayrilib yiqildi. Og‘riqdan yig‘-lab yubordi.

Shovqinni eshitib, yog‘och eshikdan ikki o‘rim sochini boshiga chambarak qilib o‘ragan, ko‘ylagining yengini tirsagigacha shimargan Buxo‘jar opa chiqdi. Bolalar uning ovozini eshitib, o‘yinni to‘xtatishdi.

Buxo‘jar opa yerga cho‘kkalab, ko‘z yoshini tuproq qo‘li bilan artayotgan Ruslanni bag‘riga bosdi:

— Ha, o‘yinlaring ham bor bo‘lsin. Kichiklarni sal ehtiyot qilinglar-da, — dedi u mehr bilan.

Bolalar esa o‘zlarini oqlashga tushishdi:

— O‘zi yiqilib tushdi.

— O‘ynashni bilmaydi.

— Qo‘rqoqni o‘yinga qo‘shmaslik kerak edi…

— Qani, hammangiz yonimga kelinglar! — dedi opa bu safar jiddiy ohangda.

Bolalar norozi qiyofada yaqinlashishdi. Buxo‘jar opa ularga haqiqiy urush haqida gapira boshladi. Urush tufayli qancha bolalar yetim qolganini, uylar vayron bo‘lganini, odamlar och-nahor qiynalganini, bomba ostida qolgan qishloq va shaharlar haqida so‘zlab berdi.

Bu gaplarni eshitgan bolalarning ko‘zlarida qo‘rquv va nafrat aralash tuyg‘ular paydo bo‘ldi. Go‘yo ular o‘zlari ham o‘sha dahshat ichida turgandek edi.

Inomjon esa kechagina dadasiga yasatib olgan, bugun ilk bor o‘ynagan “avtomat”ini sekin orqasiga yashirdi.

— Men boshqa urush o‘ynamayman. Urush yomon ekan! — dedi u va onasining bo‘yinidan quchib oldi.

— Katta bo‘lsam, chegarachi bo‘laman. Vatanimizni himoya qilaman!

Uning ko‘zlarida qat’iyat va yovga nisbatan nafrat yaqqol sezilib turardi.

Ertasi kuni Inomjonning dadasi bozordan ertak kitoblar va koptok olib keldi. Endi mahalla bolalari bo‘sh vaqtida kitob o‘qib, qahramonlar haqida suhbatlashadigan, futbol o‘ynaydigan bo‘lishdi.

Inomjon hali maktab yoshiga yetmagan bo‘lsa-da, akasi Ilhomjon bilan birga kitob o‘qir, she’rlarni yod olar edi.

Nihoyat, u ham maktabga bordi. Onasining qo‘lidan tutib, faxr bilan maktab ostonasiga qadam qo‘ydi. Sinfga kirib, devorlardagi rasmlarga hayrat bilan qaradi.

Ko‘zi bayroq yonidagi chiroyli bezatilgan partaga tushdi-da, yugurib borib o‘tirib oldi.

— O‘g‘lim, ustoz ruxsatisiz o‘tirish mumkin emas, — dedi onasi.

— Ustoz, shu yerda o‘tiraymi? Juda chiroyli ekan. Men ko‘p she’r bilaman, aytib beraymi?

Ustoz uning samimiyligidan kulimsiradi:

— Mayli, o‘tir. Ammo bu “a’lochilar partasi”. Bu yerda o‘tirgan o‘quvchi odobli bo‘lishi va a’lo baholarga o‘qishi kerak.

Inomjon o‘ylab turdi-da, o‘rnidan turib:

— Men a’lochi bo‘lishga so‘z beraman! — dedi.

U so‘zida turdi. Maktabni a’lo baholarga bitirdi, to‘garaklarga qatnadi. Keyin Pedagogika kollejiga o‘qishga kirdi. Uni tugatgach, harbiy xizmatga ketdi.

Orzusi harbiy bo‘lish edi — va bunga erishdi.

Ammo bu quvonch uzoq davom etmadi…

Oddiy askar Inomjon Ibragimov xizmat vaqtida chegarani noqonuniy buzib o‘tmoqchi bo‘lgan jinoyatchilarni payqab qoldi. Ular bilan mardonavor kurashdi. Jinoyatchilar taslim bo‘lmadi va o‘q uzishdi.

Kutilmagan o‘q Inomjonning hayotiga nuqta qo‘ydi…

Bugun maktabda “Inomjon Ibragimov partasi” bor. U o‘qigan maktabga byust o‘rnatilgan. Mahallaga uning nomi berilgan.

Endigina yigirma yoshni qarshilagan bu yigit Vatan uchun unutilmas jasorat ko‘rsatdi.

Mardlar unutilmaydi. Ular abadiy qalblarda yashaydi.

Muhayyo O‘ROQOVA

XOTIRA! KO‘NGILGA NUR KELTIR MUDOM…



Xotira — ming yamoq ko‘ngilga malham,
Suyanar olaming taskinga go‘yo.
Hasrating oralab kezar shodlik, g‘am,
Og‘ushi ichida besh kunlik dunyo...

Yod olsang nogohon uyg‘onar titroq,
Olis-olislardan kelar mungli kuy.
Yilt etib qalbingda yonadi chiroq,
Borlig‘ing egarlab olar xomush o‘y...

Xayolan chavandoz kabi ot solib,
O‘sha damlar sari yelasan sassiz.
Xotira bag‘rida bir muddat qolib,
Sog‘inib eslaysan ularni yolg‘iz...

O‘rtada olovday yonadi firoq,
Kengliklar bag‘rida tugamas tilsim.
Umrning shiddati ko‘rinmas biroq,
Chorasiz qolganda nima ham qilsin?!

Qahrli yillarning zug‘umi og‘ir,
Uning na insofi, na rahmi bordir.
Shu ona zamin deb jon berdi axir,
O‘zini baxsh etgan ne-ne bahodir...

Janglarga kuzatgan ona ko‘z yoshi,
O‘tgan vaqt qoshida titrab turgandek...
Sinmoq ne bilmagan metin bardoshi,
Ruh kabi atrofda kezib yurgandek...

Kelinning qo‘lidan choy ichmay sahar,
Kuyovlik onlarin aylagan yetim...
Temir yo‘l bekatdan kuzatgan shahar,
Tutunlar ichida yegan ich-etin...

Farzandlar dog‘ini ko‘tardi arang
Biror uy qolmadi motam tutmagan.
Beomon kechardi uzoqlarda jang,
Kunlarki ayovsiz... hech kim kutmagan...

O‘q-olov ostida qolgan gunohsiz
Keksalar, bolalar madadga ilhaq.
Uy-joyi vayrona, yo‘qolgan izsiz,
Shunchalik bo‘larmi bu urush badbaxt?!

Ey, ona diyorim,
Bag‘ring buncha keng,
Ularga baxsh etding hatto joningni.
Boshpanang to‘ridan joy ajratib teng,
Baham ko‘rding hatto burda noningni...

Ne kunlar o‘tmadi inson boshidan,
Necha shomlar keldi, necha tong otdi.
Yuraklar zirqirab ko‘zlar yoshidan
Yaqin-u do‘stlarni jangda yo‘qotdi...

Biri ota edi, u biri aka,
Biri ona, opa, uka yo singil.
Har biri jon qadar edi yurakka,
Eslasa, zor qaqshab yig‘lar bu ko‘ngil...

Ko‘tarmoq osonmas, og‘ir musibat —
Fashizm balosi solgan iztirob.
Boshlarga keltirdi mislsiz kulfat,
Bu dardlar sig‘maydi bo‘lsa ming kitob...

Ulardan qolgani shu zamin, osmon,
Kengliklar bag‘rida dala-dasht yashnar.
Unutilib ketmas u kunlar hamon,
Bir umr xotirda, yurakda yashar...

Bir lahza to‘xtamas vaqtning bo‘roni,
Chang-g‘ubor qoldirar qadim hayotga.
Mashaqqat-u dardning og‘ir suroni
Muhrlar o‘zini abadiyatga...

Mudramoq vaqtimas,
Befarqlik yomon,
Osmondan tushmagan bu kunlar axir.
Daryodek chayqalib turibdi zamon,
O‘ylagil, o‘ylagil barchasin bir-bir.

Jadid bobolarning aytgani kabi —
Bo‘lsa gar til, fikr, ishlarda birlik.
U bilan yashasa har kimning qalbi,
Vatanda abadiy yashnaydi hurlik!

Jonajon Vatanim!
Omon bo‘l mudom,
E’zozlab ko‘targil qadr-qimmatni.
Ezgulik gullari unajak bu dam,
Qalblarga naqsh ayla go‘zal himmatni.

Zamondosh!
Sen faxr qilsang arziydi,
Bu ulug‘ kunlarda toleing kulgan.
Sening-la barobar yuraman deydi,
Sharafga intilgan, shonga intilgan!

Baxt bor! Kelajakka atalgan ishonch,
Yo‘lboshching boshlagan yo‘llarda baxt bor!
Baxt bor! Shodlik bergan ko‘zlardagi yosh,
Duoga ochilgan qo‘llarda baxt bor!

Xalq bilan bo‘l, chayqal, tur endi, otlan,
Erk ilmin unutma, qalbga quloq sol.
Olg‘a yur ruhingda o‘chmas sabot-la,
Ammoki o‘tmishdan dars ol, saboq ol!

To unut bo‘lmasin ul qalblar yodi,
To ezgulik yo‘li bo‘lsin bardavom.
To zulmat tutmasin inson hayotin,
Xotira!
Ko‘ngilga nur keltir mudom!

Xotira!
Dillarga nur solgil mudom...

O‘tkir RAHMAT



OTA

Siz panohim, suyanchig‘im — tog‘ edingiz,
Sizsizlikni sezmay o‘tyapman, ota.
“Men bormanku, parvo qilma”, der edingiz,
Dunyolarga sig‘may ketayapman, ota.

Siz bog‘bonim, sizdan necha bog‘lar qoldi,
Bolalikning eng shirin dam chog‘lar qoldi.
Yuragimda o‘chmas bo‘lib dog‘lar qoldi,
Dunyolarga sig‘may ketayapman, ota.

Yig‘lagan men emas, u qon yuragim,
Sog‘inchlardan to‘lg‘onadi jon yuragim.
Kuch-quvvatga to‘lganida tosh bilagim,
Dunyolarga sig‘may ketayapman, ota.

Siz ketdingiz — armonlarga sirdosh bo‘ldim,
Ming necha o‘y, tashvishlarga yo‘ldosh bo‘ldim.
Bir lahzada katta bo‘lib, men bosh bo‘ldim,
Dunyolarga sig‘may ketayapman, ota.

Qarindoshlar ko‘rar bo‘ldi to‘ylarimni,
O‘xshatishar sizga mening bo‘ylarimni.
Qaydan bilsin dildagi dard, o‘ylarimni,
Dunyolarga sig‘may ketayapman, ota.

Vaqtlar o‘tdi, ko‘z yosh to‘kib katta bo‘ldim,
Yolg‘izlikning achchiq sharobini totdim, bildim.
Mana qarang, men ham bugun ota bo‘ldim,
Dunyolarga sig‘may ketayapman, ota.

Qalb va qalam

QALBDAGI QIZG‘ALDOQ

Gulim, senga kim soldi raxna,
Ozor bergan qaysi notovon?
Hayot, bilsang, katta bir sahna,
Tomoshabin erur olomon.

Shuncha sitam qaydan yaraldi,
Tashvishlardan boshginang egik.
Tog‘lar aro bir sas taraldi:
“Biz muhabbat shaydosi edik”.

Kecha gullab ochilib turgan,
Maskaningga tanang bo‘ldi jo.
Taqdir deya bizga buyurgan,
Yaratganga qildim iltijo.

Sen bilan biz qirda uchrashdik,
Eslagulik aziz chog‘i bor.
Ikkimizda bitta o‘xshashlik —
Qalbimizning o‘chmas dog‘i bor.

Sensiz kimga bordir keragim,
Sendan ko‘zim uzaman qandoq?
Gulim, senga yolg‘iz tilagim —
Umring uzoq bo‘lsin, qizg‘aldoq.



Mirzabek SHERBEKOV



EKRAN QARSHISIDA

Xayol uchaverar qoqib qanotin,
Olis manzil tomon qiladi parvoz.
Sinamoq bo‘ladi inson toqatin,
Yoqimsiz yangragan g‘alat bir ovoz.

To‘g‘ri, zamon yangi, yangi fikr, o‘y,
Ekranda turli xil materiallar.
Kundan kun dunyoga ko‘rsatganda bo‘y,
Asabing buzadi o‘zbek seriallar.

Darding yutay desang ichingga sig‘mas,
Millatning sha’nini tortar domiga.
Birini “bepusht” deydi, birini “tug‘mas”,
Tiling ham uyalar uning nomiga.

To‘lg‘onar nomidan oila davrasi,
Uyalar qaynona o‘z kelinidan.
Bor edi bir paytlar hayo pardasi,
Iymanib qolishar biri biridan.

Axir biz so‘zida g‘urur mavjlangan,
O‘ziga bek bo‘lgan o‘zbek xalqimiz.
Har kadr sahnida zino avjlangan,
Serialni ko‘rmoqqa nechog‘ haqlimiz?

Shunchalar ijodi barq ursa yurak,
Jahonni qoldirsin kinoda hayron.
Serial lozim bo‘lsa, yurmasdan halak,
Temurning hayotin etsinlar bayon.

Bizda yetarlidir barcha-barchasi,
Tariximiz bordir aytsa arzirlik.
Ajabmas so‘zlarim ilk debochasi,
Serialga bog‘lansa ming bir asrlik.

Buvijonim o‘gitlari

“QUSHNING HAM UYASI BUZILMASIN”

Men “Guliston” mahalla fuqarolar yig‘inida o‘n besh yil davomida diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi bo‘lib ishladim. Hozirga qadar yarashtiruv komissiyasi faoliyatida ham ishtirok etib kelmoqdaman. Yigirma ikki yil davomida faqat ikki-uchgina oilani yarashtirishning imkoni bo‘lmagan, xolos. Afsuski, bugun o‘sha oilalarning o‘zlari ham qilgan qaroridan pushaymon bo‘lib yashamoqda.

Bir oilani yarashtirish jarayonida mahalla imomi, ichki ishlar xodimlari va otinoyilar jalb qilindi. Ayol ota-onasiz, akasi tomonidan uzatilgan, bir o‘g‘il farzandi bor edi. Arzimagan kelishmovchilik tufayli u “yarashmayman” deb turib oldi. Mahalla imomi unga nasihat qilib: “Sen Allohning ahdini buzayapsan, bu yo‘lning oqibati og‘ir bo‘ladi”, dedi. Ichki ishlar xodimlari va otinoyilar ham ko‘p tushuntirish berishdi, ammo u ko‘nmadi. Oxir-oqibat sud orqali ajrashuv amalga oshdi.

Vaqt o‘tib, bu qarorning oqibatlari og‘ir bo‘ldi. Ayol akasining uyida xizmatkordek yashashga majbur bo‘ldi. O‘g‘li esa har kuni maktabdan yig‘lab qaytardi — bolalar uni “otang yo‘q” deb haqorat qilishar edi. Tog‘asi ham bolani erkalamasdan, dalaga ishga haydab yuborar, bolada esa onasiga nisbatan alam va nafrat ortib borardi.

Bir kuni bola daladan och holda qaytib keldi. Onasi unga bir piyola choy va bir burda non uzatdi. Shu payt bola choy piyolasini yerga uloqtirdi. U ko‘z yosh bilan: — Siz sabrli ayol bo‘lganingizda, bizning o‘z uyimiz, o‘z otamiz bo‘lardi. Meni “ota” degan so‘zdan mosuvo qildingiz, — dedi.

Onaning ko‘zlari ochilgandek bo‘ldi. Ammo endi kech edi. “So‘nggi pushaymon — o‘zingga dushman”, degan xalq maqoli bejiz aytilmagan.

Hozir ham mahallamizda arzimas sabablar bilan ajrashishni istaydigan, oila qadrini tushunmaydigan ayrim fuqarolar uchrab turadi. Ba’zilariga nasihat ham kor qilmaydi. Shunday holatlarda mahalla faollari ularni Oila markaziga olib borib, yarashtirishga harakat qilishadi.

Avvallari buvilarimiz og‘ir mehnatdan qochmagan: kir yuvgan, tandirda non yopgan, sigir sog‘gan, o‘choqda ovqat qilgan. Lekin ular hech qachon nolimagan. Bugungi kunda esa ayrim yoshlar eng oddiy qiyinchiliklarga ham bardosh bera olmay, oila buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, onalar qizlarini sabrli bo‘lishga, oila qadriyatlarini asrashga o‘rgatishi lozim. Ajrashish oson, ammo uning oqibatlari og‘ir va ko‘pincha tuzatib bo‘lmas darajada bo‘ladi.

Malika hojiona ASRONQULOVA,
“Guliston” MFY “Buvijonlar maktabi”
guruhi rahbari

Tahririyatga maktub

Bekobod tumanidan bir guruh ayollar joriy yil 20–23-aprel kunlari Bo‘stonliq tumanidagi “Livingston” mehmonxonasida tashkil etilgan dam olish va sog‘lomlashtirish tadbirida ishtirok etib, juda yaxshi taassurot oldilar. Yaratilgan sharoitlar ular uchun unutilmas xotiralar va katta quvonch baxsh etdi.

G‘AMXO‘RLIKDAN MAMNUNMIZ

Shu munosabat bilan mazkur ezgu tashabbus va yaratilgan imkoniyatlar uchun tuman mutasaddi rahbarlariga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Biz — Bo‘ston mahallasida yashovchi Qosimova Madina va Bog‘ishamol mahallasida yashovchi Abobakirova Latofatlar — dam olgan barcha xotin-qizlar nomidan samimiy tashakkur izhor etamiz. Yoshimiz 45–50 dan oshgan bo‘lsa-da, bunday e’tibor va g‘amxo‘rlikni ilgari ko‘rmagan edik. Bu dam olish kunlari biz uchun haqiqiy bayram bo‘ldi.

Shuningdek, mahalla faollariga ham alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz. Ushbu safar bizga ruhiy ko‘tarinkilik, quvonch va unutilmas taassurotlar hadya etdi.

Bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarga bo‘lgan e’tibor, ularning qadri va e’zozi yuksak darajaga ko‘tarilayotgani quvonarli holdir. Ayolga hurmat — jamiyatning ma’naviy yuksalishi, oilalarning mustahkamligi va kelajakning farovonligidir.

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash'al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497